

TOLALI O'SIMLIKLARNING TAVSIFI VA TASNIFLANISHI.

ADPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi talabalari

Odilova Zuhraxon Xojiqurbon qizi

Qo'ldosheva Karimaxon Baxtiyorjon qizi

ADPI Aniq va tabiiy fanlar o'qituvchisi

Tojiboyev Murodali Umaraliyevich

Annotatsiya: ushbu tezisda tolali o'simliklar tavsifi, ularning ahamiyati, foydalanishiga ko'ra tasniflanishi bo'yicha taxliliy ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari ularning biologik xususiyatlari, xalq xo'jaligidagi ahamiyati hamda zahiralari haqida fikr yuritilgan.

Abstract: this thesis presents analytical data on the description of fiber plants, their importance, and classification according to their uses. In addition, their biological properties, importance in the national economy, and reserves are discussed.

Kalit so'zlar: tolali ekinlar, voha, adir, tog' oldi, tog'li hudud, sanoat xomashyosi, paxta, jut, kanop, zig'ir, agava, zahira, bioxomashyo.

Keywords: fiber crops, oasis, hill, foothills, mountainous area, industrial raw materials, cotton, jute, hemp, flax, agave, reserve, bio-raw materials.

O'zbekistonda o'suvchi ba'zi o'simlik turlarining barg, poya, ildiz va urug'larida u yoki bu miqdorda tolalar mavjud bo'lib, ular ancha pishiq, tez uzilmaydigan, egiluvchan va chidamli bo'ladi. Ulardan yigiruv, to'quv ishlarida, ip, gazlama tayyorlashda foydalaniladi.

Tolali o'simliklarning texnik sifati o'simlikning ichki tuzilishiga bog'liq va bu mexanik to'qimalarda joylashgan uzun yo'g'on devorli tola hujayralarining mavjudligi bilan belgilanadi. O'simlik mexanik to'qimalari majmuasi yoki "o'simlik sinchi" lub tolalari, libriform, kollennima, tosh va



tayanch hujayralardan tuzilgan. O'simliklardan tolali sifatida foydalanishda lub tolalari va bargli daraxtsimon o'simliklar yog'ochligidagi libriform juda muxim. Lub tolalari va libriformdan tashqari ayrim o'simliklarning tuklari ham ishlatiladi. Tola olishda o'simliklarning turli qismlaridan foydalaniladi. Bunda ildizlari, yog'ochlik qismi, lub tolalari, daraxtsimon o'simliklar novdasi va shox-shabbasi, o'tsimonlarning poyasi ham tabiiy xolda ishlatiladi. Barg (*zubtutum*)dan ham tola olinadi. Faqat gullari tola saqlamaydi. Xatto mevalar (*kokos*, *baobab*) tarkibida ham tolalar mavjud. O'simlik urug'laridagi tola va tuklar (g'o'za) juda muxim va amaliy ahamiyatga ega. Uning uzunligi 20 mm dan 45 mm gacha bo'lgan prozenximatik hijayra hisoblanadi. Aynan ulardan yengil sanoatda keng foydalaniladi. Tolali o'simliklar o'simliklar qoplamida juda keng tarqalgan. Bunday o'simliklar suvo'tlari, lishayniklar, yo'sinlar, qirqquloqsimonlar, qarag'aytoifalar va albatta yuksak gulli o'simliklar tarkibida ko'plab topiladi. Eng yaxshi tolali o'simliklar gulli o'simliklarning magnoliyasimonlar sinfi vakillari orasida ko'p uchraydi va ulardan to'qimachilik va tikuvchilikda keng miqyosda foydalaniladi. Lolasimonlardan narsalar to'qishda va qog'oz ishlab chiqarishda foydalaniladi.[2]

Voha mintaqalarida tarqalgan tolali o'simliklar: voha mintaqalari issiq va sug'oriladigan hudud bo'lib, paxta (*Gossypium hirsutum*), jutning ayrim navlari, kanop va zig'ir ekiladi. Paxta tolasi O'zbekiston sanoatining asosiy bioxomashyosi bo'lib, respublikaning katta qismi voha hududlarida yetishtiriladi. Adir mintaqalarida (qiyaliklar) tarqalishi.

Adir mintaqalari yarim quruq iqlimga ega bo'lib, tolali o'simliklardan ehtiyotkor sug'orish bilan zig'ir, kanop, jundan tashqari agave (*Agave sisalana*) kabi issiqsevar o'simliklar o'stirilishi mumkin. Bu hududlarda tolali yovvoyi o'simliklarning ham tabiiy zaxiralari mavjud.

Tog' oldi mintaqalari: Bu mintaqalarda namlik nisbatan yuqori bo'lgani sababli zig'ir (*Linum usitatissimum*), qamish va ayrim yovvoyi tolali o'simlik

turlari yaxshi rivojlanadi. Zig'ir tolasi sifat jihatidan yuqori hamda texnik maqsadlarda keng qo'llanadi.[5]

Tog' mintaqasida uchraydigan tolali o'simliklar: Tog'lar sovuq va nam iqlimga ega hudud bo'lib, tabiiy holda yovvoyi zig'ir, yantoqning ayrim tolali turlari, qo'shqo'llar (*Artemisia*) turlari tolasi, qamishdoshlarning ayrim navlari uchraydi. Ularning zaxiralari asosan tabiiy ekotizimlarda saqlanadi.[1]

To'qimachilik sanoati va xalq xo'jaligining boshqa ayrim tarmoqlari uchun qimmatbaho xom ashyo hisoblangan hamda, yuqori sifatli tola beruvchi o'simliklar, asosan gulhayridoshlar, zig'irdoshlar va kendirdoshlar oilalarining vakillaridir. Tolali o'simliklar ishlatilishiga qarab bir qancha guruhlariga bo'linadi:

1. Yigiruv yoki to'qimachilik sanoati uchun asosiy xomashyo manbai hisoblanadigan o'simliklar. Ularning lub tolalari poyalarida (*kendir, gazandao't, kanop, zig'ir*), barglarida (*yangi zelandiya zig'iri, lo'x, qo'g'a*) bo'ladi. Ba'zi o'simliklarning urug' tuklari tola sifatida ishlatiladi (*yovvoyi g'o'za, g'o'za*).

2. To'qish uchun ishlatiladigan o'simliklar. Ularning turli organlarini, ya'ni poya, barg, novda va ildizlarini po'stloqdan tozalab, ozgina shaklini o'zgartirgan holda ulardan turli xil bosh kiyimlari, uy - ro'zg'or buyumlari (savatlar, to'qilgan stullar, kreslolar) va chetan devorlari tayyorlash mumkin.

3. Cho'tkabop tolali o'simliklarda ildiz yoki poyaning birlamchi po'stloqli qismi olib tashlangandan keyin tolalari ko'zga yaxlit ko'rinadi. Bu tolalardan texnik maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, uy - ro'zg'orda ishlatadigan oqlash va bo'yashda qo'llaniladigan turli xil cho'tkalar tayyorlasa bo'ladi. Cho'tka ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tolalar tekis to'g'ri bo'lib, sinmasligi va ular egiluvchan bo'lishi, uzunligi 8-15sm dan kalta bo'lmasligi kerak.

4. Buyumlarni bog‘lash uchun ishlatiladigan o‘simliklar. Poya va barglari uzunroq, egiluvchan bo‘lganligi sababli, ulardan turli narsalarni bog‘lashda foydalaniladi.

5. To‘ldiriladigan yoki o‘rash uchun ishlatiladigan o‘simliklar. Ularning tuklari meva ichida (g‘o‘za), urug‘ida (o‘simlik ipagi) hamda, boshqa organlarida bo‘ladi. Shuningdek ba’zi bir pallali o‘simliklarning ingichka uzun barglari va barg tuklari yostiqlarga, to‘shaklarga, yumshoq stul, divan, kiyimlarga solinadi hamda turli buyumlarni o‘rash uchun ishlatiladi.

6. Qog‘oz yoki sellyuloza ishlab chiqarishda foydalaniladigan o‘simliklar. Bu o‘simliklar ko‘p tolali xujayralarga ega. Ularni mexanikaviy va kimyoviy usul bilan ajratib olib qog‘oz va sellyuloza ishlab chiqarishda qo‘llanishi mumkin.[2]

Tolali o‘simliklardan, Ayniqsa, g‘o‘zaning (*Gossypium L.*) ahamiyati juda katta. G‘o‘zaning urug‘i (chigiti)da uzunligi 20g‘50 mm keladigan tolalar bo‘ladi. Jaxon miqyosida ishlab chiqarilayotgan tolalarning 75 % g‘o‘za zimmasiga to‘g‘ri keladi. G‘o‘za tolasidan turli gazlamalar, kinoplenkalar, portlovchi moddalar tayyorlanadi, sun‘iy ipak, qog‘oz, izolyatsion matolar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Tolali o‘simliklar zaxiralari. Iqlim, suv ta‘minoti, tuproq unumdorligi va agrotexnika tadbirlariga bog‘liq. O‘zbekistonda eng katta zahira paxtaga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, zig‘ir va kanop ekin maydonlari kengayib bormoqda. Tog‘ mintaqalaridagi yovvoyi tolali o‘simliklar esa tabiiy resurs sifatida ahamiyatga ega.

Tolali o‘simliklardan olinadigan tola matolar, arqon, qop, texnik matolar, selluloza, qog‘oz, biologik polimerlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ular iqtisodiyotda qayta tiklanuvchi resurs hisoblanadi. Zaxiralarni kengaytirish imkoniyatlari: Zamonaviy agrotexnika, suvni tejash texnologiyalari, yuqori hosilli navlar, o‘simliklarni seleksiya qilish hamda yangi hududlarni o‘zlashtirish tolali o‘simliklar zaxiralarini oshirishda asosiy omillardir.[4]

Xulosa: turli tik mintaqalardagi iqlim va tuproq sharoiti tolali o'simliklarning turlari hamda hosildorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Voha mintaqalari paxta kabi issiqsevar ekinlar uchun qulay bo'lsa, tog' oldi va tog' mintaqalari zig'ir va tabiiy tolali o'simliklar uchun mosdir. O'zbekistonda tolali o'simliklar zaxiralarini oshirish, ularni qayta tiklanuvchi xomashyo sifatida samarali boshqarish to'qimachilik sanoati va ekologik barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mintaqaviy sharoitlarni inobatga olgan holda tolali o'simliklarni ko'paytirish va ulardan oqilona foydalanish dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tulyagonova M, Yuldashev A.S, O'zbekistonda keng tarqalgan foydali o'simlikla -Toshkent 2011.
2. .Yuldashev Akramjon Sultanmurodovich – And.DU, Biologiya va ekologiya kafedrasi professori, b.f.d.
Tojiboyev Murodali Umaraliyevich – And.DU, Biologiya va kafedrasi katta o'qituvchisi- Botanik resursshunoslik (fanidan o'quv- uslubiy majmua) Andijon, 2018
3. Xolmurodov A, Jo'rayev B, Botanika- Toshkent O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti-2020.
4. Abdullayev, A, O'simlikshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
5. Akramova, M., "Yengil sanoat uchun xomashyo bo'lgan tolali o'simliklar va ularning tasnifi", O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2021.

